



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Maxmudov Mansurjon Abdug'opporovich</i> TARIXIY ASARLAR VA ULARNI O'RGANISH: MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR	12-17
<i>Qurbanov Xurshid Raupovich</i> O'ZBEKISTONDAN JANUBIY URALGA SAFARBAR QILINGAN "MEHNAT ARMIYACHILARI" VA ULARNING TA'MINOTI	18-22
<i>Salayev Fazliddin Shamsiddin o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA DEMOGRAFIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI	23-28
<i>Abbasov Behzod Baxtiyorovich</i> FARG'ONA OBLASTIDA TASHKIL QILINGAN XO'JALIKLARDA IJTIMOIY MUAMMOLAR VA KO'CHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI (1946-1965).....	29-35
<i>Mirzaliyev Ulug'bek, Klichev Ulug'bek</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ARXIVLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI ISHLAR VA ISLOHOTLAR	36-39
<i>Tursunova Gavhar Begmuradovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN MA'MURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI)	40-50
<i>Vaxobov Doston Abdumannob o'g'li</i> IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MAKTAB, TIBBIYOT VA SOG'LIQNI SAQLASH XODIMLARINING G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI	51-54
<i>Sodiqova Yulduzzon Maxamat qizi</i> O'ZBEKISTONDA MAKTAB TA'LIMINI ISLOH QILINISHI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR (1991-2024 yy)	55-59
<i>Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich</i> QUYI SIRDARYOBO'YI HUDUDLARIDA OLIB BORILGAN ARXELOGIK TADQIQOTLAR VA ULARNING NATIJALARI	60-64
<i>Yo'ldosheva Gulbahor Nuriddinovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING AHVOLI VA MODDIY – TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI (QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA)	65-69
<i>Mardiyeva Guzel Karimovna</i> XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI	70-75
<i>Narziyev Rustambek Xaydarovich</i> HARAKATLAR STRATEGIYASIDA NOGIRONLIGI BOR YOSHLAR UCHUN YARATILGAN IMKONIYATLAR	76-80

<i>Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich</i>	
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN SHAHRINING	
IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI	81-87
<i>Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna</i>	
O'ZBEKISTONNING MILLIY HUNARMANDCHILIGI RIVOJIDA	
IPAKCHILIKNING O'RNI	88-92
<i>G'ulomjon Jumanazarovich Axmedov</i>	
O'ZBEKISTON TARIXIDA KONCHILIK ISHI VA METALLURGIYA RIVOJLANISHI	93-99

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i>	
BARQARORLIK REYTINGI ORQALI FISKAL INTIZOM VA BIZNES MUHITINI	
RAG'BATLANTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	100-116
<i>Юлдашева Надира Викторовна</i>	
«ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗАКУПКИ ПОД КОНТРОЛЕМ:	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ МОНИТОРИНГА».....	117-123
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i>	
ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	124-128
<i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i>	
TURISTIK VA REKREATSION KLASTERNING MUVAFFAQIYATLI	
FAOLIYAT YURITISH TAMOYILLARINI TIZIMLASHTIRISH	129-135
<i>Xadimova Aziza Abdufattoyevna</i>	
SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARI	
VA IQTISODIY RIVOJLANISHI.....	136-145
<i>Tashpulatov Giyos Toxirovich</i>	
XORIJY BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR REYTINGI VA RENKINGINI BAHOLASHDA	
KOMPLEKS YONDASHUVNING QO'LLANILISHI T AHLILI	
(ROSSIYADAGI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR MISOLIDA)	146-159
<i>Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna</i>	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA	
INSON KAPITALINING TA'SIRI	160-164
<i>Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi</i>	
“QUTIDA RO'YXATGA OLISH” (SHELF-REGISTRATION) AMALIYOTINI JORIY ETISH	165-169

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Komilov Ro'zi Rabiyevich</i>	
OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MODDIY VA MA'NAVIY	
OMILLARNING FALSAFIY T AHLILI	170-172
<i>Хакимов Эркин</i>	
ЗНАНИЕ ЛОГИКИ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ	
МЫШЛЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ	173-180
<i>Usmonova Laylo Raxmatullayevna</i>	
SHARQ FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI	181-185
<i>Karimov Yo'lqosh Ergashevich</i>	
TARIXNI SOXTALASHTIRISHNING TARIXIY TAFAKKURGA TA'SIRI MASALALARI	186-191

<i>Агзамходжаева Шахноза Сайдматмабовна</i>	
О ЦЕЛИ И СОДЕРЖАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЖИЗНИ, ДУХОВНОМ СОВЕРШЕНСТВЕ (ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ АЛИШЕРА НАВАИ).....	192-195
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i>	
ZAMONAVIY IQTISODIY TARG'IBOT VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	197-204
<i>Evatov Salimjon</i>	
MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFİY TAFAKKUR RIVOJI: IX-XII ASRLAR MEROSI	205-209
<i>Turobov Yorqinjon Yoqub o'g'li</i>	
ISLOM TA'LIMOTIDA SIYOSAT VA HOKIMIYAT FALSAFASI	210-213
<i>Toshpulatov Odil Nodirovich</i>	
IJTIMOIY MUNOSABATLARDA AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI OLISHDA MAVJUD ME'YORLARNING AHAMIYATI	214-217
<i>Kunisheva Nadira Julianovna</i>	
"IJTIMOIY BAG'RIKENGLIK" TUSHUNCHASINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI	218-223
<i>Eshpulatov Inoyat</i>	
FAXRIDDIN ROZIY YASHAGAN DAVR: IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT VA MA'NAVIY MUHIT	224-231
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna</i>	
O'ZBEK ONOMASTIKASIDA GIDRONIMLARNING LINGVOMADANIY SHAKLLANISHI	232-236
<i>Алиева Эльвина Аметовна</i>	
ЛЕКСИЧЕСКИЙ И ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЙ ПОВТОРЫ С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОЧЕРКАХ М. ЦВЕТАЕВОЙ	237-243
<i>Usmanova Sevara</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TARIXIY ROMANLARIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA	244-251
<i>Ochilov Ulug'bek Sayfulloyevich</i>	
MAGIK REALIZMNING MADANIYAT VA ADABIYOTGA TA'SIRI.....	252-260
<i>Daminova Rahima Malikovna</i>	
ATOYI SHE'RIYATINING BADIY LATOFATI.....	261-266
<i>Yusupov Asror</i>	
PUBLITSISTIK MATNLARDA UCHROVCHI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKAR TARJIMASIGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV	267-271
<i>Ruziyeva Nasiba Kenjayevna</i>	
VLADIMIR GEORGEVICH GAKNING TARJIMA MASALALARIGA DOIR TADQIQOTLARI	272-276
<i>Batirkhanova Madina Oybekovna</i>	
COMPONENT ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH FICTION	277-281
<i>Sirojiddinova Shakhrribonu</i>	
THE FORMATION OF MYTHOLOGY AND THE INFLUENCING FACTORS	282-285

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i>	
DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY XIZMATLAR TUSHUNCHASI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	286-292
<i>Wang Cong</i>	
RESEARCH ON LEGAL ISSUES OF PERSONAL INFORMATION PROTECTION	293-300
<i>Ли Адик</i>	
К ВОПРОСУ О ПОНЯТИИ И КЛАССИФИКАЦИИ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	301-310
<i>Abdurashidova Zarina Turg'un qizi</i>	
FUQAROSIZLIKKA QARSHI MUROSASIZLIK: HUQUQIY CHORALARING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	311-315
<i>Axmatov Olimjon Odilovich</i>	
"KRIPTO-AKTIVLAR VA VALYUTA QIMMATLIKARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH, O'TKAZISH VA AYIRBOSHLASH: IQTISODIY, HUQUQIY XAVF-XATARLAR VA ULARNING OLDINI OLISHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI"	316-322
<i>Xatamov To'lqin Tojiddinovich</i>	
KUCHLI TA'SIR QILUVCHI VA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI YANGI TURLARINI NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI	323-329
<i>Kuchimova Shaxlo</i>	
VORISLIK HUQUQIDA MEROS MAJBURIYATI	330-337
<i>O'ranova Dilshoda Adhamovna</i>	
OILAVIY ZO'RAVONLIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARDA AYOLLAR JABRLANISHINI OLDINI OLISH BO'YICHA FARG'ONA TAJRIBASI	338-347
<i>Geng Zhimin</i>	
RESEARCH ON THE INDEPENDENCE OF THE INTERNATIONAL CRIMINAL COURT.....	348-351
<i>Xidirov Mexroj Qilich o'g'li</i>	
ELEKTRON TO'LOV VOSITALARI ORQALI SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK JINOYATLARINING SABABLARI, ULARNING SODIR ETILISHIGA IMKON BERUVCHI OMILLAR	352-357
<i>Тулаганов Элмурод</i>	
ВОПРОСЫ ПРОТИВODEЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	358-367
<i>Bozorboyev Farruh, Boboxonov Akromxon</i>	
DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI	368-374
<i>Abbosov Mirluton Mirsharof o'g'li</i>	
JINOYAT QONUNCHILIGIDA SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY XAVFLILIGI	375-382

<i>Mamatov Islom Qosim o'g'li</i>	
DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH USULLARI, AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR	383-392
<i>Kamilov Oybek</i>	
O'ZBEKISTONNING MIGRATSIIYA SOHASIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR VA XORIJY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	393-402
<i>Aбророва Камола Сайдмухторовна</i>	
ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО КОММЕРЧЕСКОГО АРБИТРАЖА НА ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ	403-410
<i>Ne'matova Muborak Odiljonovna</i>	
RAQAMLI FUQAROLIKNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHGA OID DOLZARB MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	411-418
<i>Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi</i>	
"HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA SUN'iy INTELLEKTNI INTEGRATSIYA QILISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY MASALALAR"	419-427
<i>Agzamova Qizlarxon Baxtiyorovna</i>	
INSOFLI EGALLOVCHINING HUQUQIY MAQOMIGA OID AYRIM MASALALAR	428-432
<i>Shomirzayev Saxodulla, Sherkulov Azamat</i>	
VALYUTA QIMMATLIKARINI BOJXONA CHEGARASIDAN OLIB O'TISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNI ANIQLASH VA JAVOBGARLIK ASOSLARI	433-441
<i>Jumanazarov Faxriddin Erkinovich</i>	
KONTRAFAKT MAHSULOTLAR KONTRABANDASI NATIJASIDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI BUZILISHINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI	442-448
<i>Ergashev Sharifjon Shuhrat o'g'li</i>	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING JAMIYAT IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISHDA BOJXONA AUDITINING O'RNI	449-457
<i>Mansurov Arslon Askarovich</i>	
"IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILINING YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI HUQUQIY MAQOMI VA XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLAMA TAHLILI	458-463
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
"JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI" FANIDAN NAZARIY MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH METODIKASI	464-470
<i>Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi</i>	
EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISH: XORIJY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR	471-475
<i>Fayzullayeva Gulchexra, Kurbonova Gulmira</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QUV MUHITINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR	476-481

<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i>	
ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI VA TARKIBIY TUZILISHI.....	482-485
<i>Mirsanova Moxira Xusniddin qizi</i>	
FANTASTIK IFODA SHAKLLARI VA UNING BADIYATI	486-491
<i>Tursinova Zoxida Sharabidinovna</i>	
TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEXANIZMLARINING TAKOMILLASHUVIDA TA'LIM MENEJMENTINING O'RNI	492-496
<i>Раббимова Нодира Таштемировна</i>	
ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ В ВУЗЕ	497-501

Received: 16 March 2025

Accepted: 5 April 2025

Published: 15 April 2025

Article / Original Paper

SIMPLIFICATION OF PROCEDURAL ACTIONS AT THE STAGE OF PRELIMINARY INVESTIGATION: THE INSTITUTE OF WITNESSES

Bozorboyev Farrukh Ibrokhim ugli

Master's student of the Academy of Law Enforcement

Bobokhonov Akromkhon Aloxonovich

Senior Lecturer of the Academy of Law Enforcement

Abstract. The article analyzes some criminal-legal aspects of the qualification of bribery crimes from a scientific point of view, in particular, it examines the issues of qualification of some problematic aspects related to the subject of bribery, the concept of an official, the participation of a group of persons in determining criminal liability for bribery, and also examines scientific conclusions and views on this issue.

Keywords: bribe, bribe-taking, bribe-giving, official, crime, qualification.

DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI

Bozorboyev Farruh Ibrohim o'g'li

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistri

Boboxonov Akromxon A'loxonovich

Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada jinoyat protsessida xolis instituti tushunchasi, turlari, tasnifi hamda amaliyotdagI muammolar, xorijiy yondashuv. Shuningdek, tergov va protsessual harakatlarda xolislar ishtirokidagi muammolarga takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xolis, xolis instituti, tergov harakatlari, protsessual harakatlar, tergovga qadar tekshiruv, dastlabki tergov, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N57>

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda aholi soni yildan yilga o'sib bormoqda. O'zbekistonning doimiy aholisi soni 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 37 million 543,2 ming kishiga yetdi. Bu o'z navbatida, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik jarayonlardagi o'zgarishlarga, shuningdek, hududlarda jinoyatchilikning o'sishiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Albatta, huququzarliklarni oldini olish, ularni qisqa muddatlarda issiq izidan fosh qilish, jinoyat uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlash orqali fuqarolarning qonun oldidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash vazifasi surishtiruv va tergov organlari zimmasiga ham yuklanadi. Ushbu sohada ayrim protsessual harakatlarni soddalashtirish, tergov harakatlarida qo'shimcha ishtirokchilar va vositalarni kamaytirish orqali jinoyat ishlaridagi jarayonlarning tezligi va samaradorligini, resurslarning samarali taqsimlanishini, protsessual chiqimlarning kamayishiga erishiladi. Protsessual soddalashtirishda axborot texnologiyalar imkoniyatidan

foydalanish bevosita ishtirokchilarga barcha harakatlarni tushunarli va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 23-maydag'i "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalari jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari himoya qilinishini ta'minlash bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" O'RQ-542-sonli Qonuni [1, B. 4] bilan JPK 91¹–91⁴-moddalari bilan to'ldirilib, jinoyat protsessida axborot texnologiyalaridan keng foydalanish yo'li bilan fuqarolarning huquq-erkinliklari va qonuniy manfaatlarini yanada himoya qilinishini ta'minlash maqsadida tergov harakatlarini VKA rejimida o'tkazish tushunchasi, asoslari, shartlari va tartibi hamda natijalarini qayd etish belgilandi.

Shuningdek, 2021-yil 12-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalari o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" O'RQ-476-sonli Qonuni [2] bilan jinoyat protsessini yuritish davrida audioyozuvdan foydalanish tartibi ham kiritildi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 14-maydag'i O'RQ-617-sonli "O'zbekiston Respublikasining JPKga jinoyat protsessida ishtirok etuvchi fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishni kuchaytirishga qaratilgan o'zgartishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida" Qonuni [3] bilan jinoyat protsessini yuritishda ayrim protsessual harakatlar videoyozuv orqali qayd etilishi shartligi qat'iy belgilab qo'yildi.

Jumladan, yangi tahrirdagi JPKning 91-moddasiga ko'ra, quyidagi protsessual harakatlar majburiy ravishda videoyozuv orqali rasmiylashtiriladigan bo'ldi: o'ta og'ir jinoyatlar bo'yicha hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, tintuv, ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish, tergov eksperimenti, shaxsni ushslash, himoyachidan voz kechish, shaxsni ushslash jarayonida o'tkaziladigan shaxsiy tintuv va olib qo'yish. Fikrimizga ko'ra, ushbu qonunning joriy etilishi tergov harakatlarini axborot texnologiyalaridan foydalangan holda soddalashtirish holatiga bosqichma-bosqich o'tilishiga xizmat qiladi.

Ishni sudga qadar yuritish bosqichida axborot texnologiyalaridan foydalanish shart bo'lgan holatlarda ulardan foydalanmasdan o'tkazilgan va qayd etilgan protsessual harakatlar kelgusida ayrim vaziyatlarda o'zining daliliy maqbullik ahamiyatini yo'qotadi.

Qolaversa, axborot texnologiyalari nafaqat dastlabki tergov bosqichida, balki umuman jinoyatga oid ishlarni yuritish jarayonida shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining garovi sifatida ham e'tirof etila boshlandi.

Bundan ko'rinishdagi protsessual hujjalarning rasmiylashtirilishi ishni yuritishga mas'ul bo'lgan mansabdar shaxslarning faoliyatini yengillashtirishiga va jarayonning tezlashishiga sharoit yaratadi.

Bundan tashqari, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ishni sudga qadar yuritishda yagona idoralararo elektron hamkorlik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 28-yanvardagi PQ-105-son qarori [4] bilan joriy etilgan imkoniyatlarga ko'ra, tergovchilar jinoyat ishlari doirasida tegishli korxona, muassasa va tashkilotlarga elektron ko'rinishda topshiriqlarni yuborish va qisqa muddatlarda ularning tegishli ma'lumotlar bazalaridan axborot olish imkoniyatiga ega bo'lganlar.

Hozirgi davr tezkor rivojlanib borayotgani va axborot texnologiyalari hayotning ajralmas qismiga aylanganini inobatga olgan holda, jinoyat protsessining kelajagiga amaliy yondashish zarur. Keljakda bu jarayon to'liq axborot texnologiyalari bilan qamrab olinishi, hattoki ayrim protsessual harakatlar sun'iy intellekt yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Buning uchun jinoyat-protsessual qonunchiligi zamonaviy talab va sharoitlarga mos ravishda rivojlanib borishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “*Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida*”gi qarori [5]ga muvofiq, agar raqamli (elektron) tashuvchi jismlardagi ma'lumotlar mutaxassis ishtirokisiz olib qo'yilgan yoki ko'zdan kechirilgan bo'lsa, ular maqbul dalil sifatida tan olinmasligi mumkin.

Tergov jarayonida dalillarni tahlil qilish, tekshirish, baholash va hujjatlashtirishda axborot texnologiyalari ko'pincha yordamchi vosita sifatida qo'llaniladi. Jinoyat-protsessual kodeksining 91-moddasi uchinchi qismiga ko'ra, tergov yoki sud jarayonining borishi va natijalarini aks ettiruvchi fotosuratlar, audioyozuvlar, videoyozuvlar, kinotasvirlar, qoliqlar, nusxalar, rejalar hamda sxemalar bayonnomaga ilova qilinadi. Har bir ilovada tergov yoki sud jarayonining nomi, amalga oshirilgan joyi va sanasi haqida izohlovchi matn bo'lishi shart. Ushbu izohlovchi matnni surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida surishtiruvchi yoki tergovchi hamda xolislardan, sud jarayonida esa raislik qiluvchi suda va sud majlisi kotibi o'z imzolari bilan tasdiqlaydi.

Shu nuqtai nazardan, protsessual harakatlarni amalga oshirishda xolislarning ishtiroki talab etiladigan holatlarga alohida e'tibor qaratish lozim. Jinoyat-protsessual kodeksida ayrim protsessual harakatlarni bajarishda xolislarning ishtiroki majburiy ekani aniq belgilab qo'yilgan.

Jumladan, qonunning 73-moddasiga ko'ra, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan tergov yoki boshqa harakatlar o'tkazilganini, uni o'tkazish jarayoni va natijalarini tasdiqlash uchun xolislardan Kodeksda nazarda tutilgan hollarda chaqiriladi. Shuningdek, tergov harakatlarida ishtirok etish uchun ishning oqibatidan manfaatdor bo'limgan, kamida ikki nafar voyaga yetgan fuqaro xolis sifatida jalb qilinishi lozimligi, tergov harakatini boshlashdan oldin surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror ularga huquq va majburiyatlarini tushuntirishi shartligi belgilab qo'yilgan.

Jinoyat-protsessual kodeksining 352-moddasiga ko'ra, quyidagi protsessual harakatlarni o'tkazishda xolislarning ishtiroki shart:

- 1) tanib olish uchun ko'rsatish (127–129-moddalar);
- 2) ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish (133-modda);
- 3) ko'zdan kechirish (136-modda);
- 4) guvohlantirish (146, 445-moddalar);
- 5) murdani eksperimentasiya qilish (149-modda);
- 6) eksperiment (155-modda);
- 7) olib qo'yish (161-modda);
- 8) tintuv va shaxsiy tintuv (162-modda);
- 9) ekspertiza tadqiqoti uchun namunalar olish (193-modda);
- 10) pochta-telegraf jo'natmalarini ko'zdan kechirish va olib qo'yish (167-modda);
- 11) Mol-mulkni xatlash (291-modda);
- 12) fuqaro tergovchining qonuniy talablarini va takliflarini bajarishdan bosh tortayotganligini yoki tergovchiga qarshilik ko'rsatayotganligini yoxud dastlabki tergov yuritish tartibiga to'g'ri kelmaydigan boshqa huquqqa zid xatti-harakatlar qilayotganini tasdiqlash uchun ham xolislardan taklif qilinadilar.

Bugungi kunda jinoyat protsessiga axborot texnologiyalari keng joriy etilayotgan sharoitda tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida xolislarining majburiy ishtirokini maqbullashtirish masalasini muhokamaga chiqarish zarur. Jinoyat-protsessual kodeksining 73-moddasiga muvofiq, xolislarining ishtirokidan asosiy maqsad – surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan amalga oshirilgan tergov va boshqa protsessual harakatlarning o'tkazilgani, ularning borishi hamda natijalarini tasdiqlashdan iborat.

Jinoyat-protsessual qonunchilik tergov harakatlarining o'tkazilgani, ularning jarayoni va natijalarini tasdiqlashda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini taqdim etayotgan bir paytda, nima uchun ushbu imkoniyatdan samarali foydalanib, fuqarolarning ortiqcha vaqt yo'qotishlari va noqulayliklarini kamaytirish yo'llari ko'rib chiqilmasligi kerak?

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda tergov harakatlarini yuritishda ishtirok etish uchun ishning oqibatidan manfaatdor bo'lmanan ikki nafar xolisni topish hamda ularni jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar, dastlabki tergov va sud jarayoniga jalb qilish oson ish emas. Xolislarni tergov harakatlarida ishtirok etishga ko'ndirish va ular bilan munosabat o'rnatish isbot qilish jarayonini hamda ishning holatini qayd etish kabi mas'uliyatli vazifani amalga oshiruvchi mansabdor shaxsning vaqtini ortiqcha sarflashiga olib keladi.

Ayrim holatlarda, xolislar tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkazishda va tergovga qadar tekshiruv davrida taklif qilinadilar. O'z navbatida, to'plangan hujjatlar bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atilganidan so'ng, u guvoh tariqasida so'roq qilinib, aksariyat holatlarda ular bilan boshqa protsess ishtirokchilari o'rtasida yuzlashtirish tergov harakatlari o'tkaziladi. Dastlabki tergovda bergan ko'rsatuvlarini tasdiqlash uchun sud muhokamasiga takroran chaqirilib, ba'zi nizoli holatlarda esa bir necha marotaba chaqirilishlari zarurati tug'iladi. Ayrim hollarda bir-birini takrorlovchi protsessual harakatlar o'tkazilishi tufayli, xolis sifatida jalb qilingan fuqarolar o'zlarining vaqtlarini yo'qotishlari bilan bir qatorda, ularda va ular orqali jamiyatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati to'g'risida salbiy fikr shakllanishiga ham olib keladi.

Shuni ta'kidlash joizki, viloyatlarning olis va chekka hududlarida, shuningdek, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda hamda tungi vaqtarda xolislar topish ko'pincha qiyinchilik tug'diradi. Natijada, isbot qilish ishtirokchilari tomonidan ishning oqibatidan manfaatdor bo'lgan "navbatchi" yoki bo'lmasa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga keltirilgan (masalan: ma'muriy qamoqqa olinganlar, ko'makchi shaxslar, texnik xodimlar va b.) fuqarolar xolis sifatida jalb qilinadilar. Amaliyotda shuni kuzatish mumkinki, tergov harakatlarida ularni ishtiroki shart bo'lganligi bois, ishni sudga qadar yuritish bosqichida mansabdor shaxs ayrim vaqtarda hattoki xolislarni jalb qilishga o'z hisobidan xarajat qilishiga ham to'g'ri keladi. Tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va tergov organi xodimlari tomonidan xolislarni taklif qilishda yuzaga keladigan ortiqcha muammolar sababli, ayrim hollarda protsessual hujjatlarni soxtalashtirish holatlari ham kuzatilgan. Bularning barchasi, kelgusida sudda dalillarni nomaqbul deb topilishiga va hattoki ishni yuritishga mas'ul bo'lgan xodimlarning javobgarlikka tortilishiga ham sabab bo'ladi.

Ayrim tergov harakatlariga (hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish va b.) jalb qilingan xolislar keyinchalik ushbu jinoyat ishi doirasida guvoh, guman qilinuvchi va ayblanuvchi tariqasida so'roq qilinishi mumkin.

Protsessualist olim A.I.Leonovning fikriga ko'ra, xolislar har doim ham dalillarning to'g'rilingiga ishonchli kafolat emas, ba'zi hollarda ularni manfaatdor mansabdar shaxs tomonidan manipulyatsiya qilish oson hisoblanadi [7, B. 56-57].

Fikrimizga ko'ra, murdani eksgumatsiya qilish tergov harakatida tergovchi rahbarligida sud tibbiy ekspertlar, mutaxassislar hamda murdani olish va ko'mishda qabriston xodimlari ishtirok etadilar. Biroq, qonun talablariga muvofiq xolis sifatida fuqarolarni taklif qilib, ushbu jarayonda murda bilan bog'liq harakatlarni o'tkazish ularda psixologik va emotsiyal bosimlarni yuzaga keltiradi, bunday tergov harakatlariga har kim ham rozi bo'lmaydi, har qanday odamning ham ruhiyati dosh bermaydi.

Bundan tashqari, davlat sirlariga oid ma'lumotlar bilan bog'liq jinoyat ishlarining tergovida davlat tomonidan qo'riqlanadigan va maxsus ro'yxatlar bilan chegaralab qo'yiladigan maxfiy turdag'i harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va o'zga xil ma'lumotlardan xolislarning xabardor bo'lishi maqsadga muvofiq emas deb hisoblaymiz.

Xorijiy tajribani o'rganar ekanmiz, AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Kanada, Yaponiya, Xitoy, Latviya kabi rivojlangan mamlakatlarning qonunchiligidagi ishni sudga qadar yuritish bosqichida xolis instituti nazarda tutilmagan. Shuningdek, 2018-yilda qo'shni Qirg'iziston Respublikasi ham xolis institutidan rasman voz kechgan. Rossiya, Belorussiya, Tojikiston va Turkmanistonning jinoyat-protsessual qonunchiligidagi esa, agar tergov harakati borish mushkul bo'lgan joyda yoki inson hayoti va sog'lig'i xavf ostida bo'ladigan sharoitda amalga oshirilsa, xolislarning ishtirokisiz tergov harakatlarini o'tkazishga yo'l qo'yiladi [8].

V.E.Djakoniyaning fikriga ko'ra, videoyozuv – bu ma'lumotlarni saqlash uchun video signal yoki raqamli video oqimi ko'rinishida taqdim etilgan vizual ma'lumotni jismoniy tashuvchida yozib olish va uni keyinchalik monitor, ekran yoki displayda namoyish etishdir. Videoyozuv natijasi videogramma yoki videofonogramma hisoblanadi [9].

M.X.Kadirova fikriga ko'ra, isbotlash jarayonida ashyolar va hujjatlar, agar ular texnik yoki elektron vositalardan foydalangan holda olingan bo'lsa, foydalanilgan texnik va elektron vositalar to'g'risidagi ma'lumotlar, olingan elektron fayning rezolyutsiyasi (formati), yaratilgan sana, o'zgartirilganligi va muallif haqidagi ma'lumotlar bo'lsa, ashyoviy dalil yoki boshqa hujjatlar deb e'tirof etilishi mumkin[10].

Boshqa bir olim I.S.Zvyaginning fikriga ko'ra, "xolislar o'rnini texnik vositalar orqali almashtirish tergov bo'linmalari faoliyatini ratsionallashtirish hisoblanadi. Texnik vositalardan foydalanish har bir tergov harakatida xolislarni izlash zaruratini bartaraf etadi. Masalan, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish va tintuv jarayonida olingan ashyolar, jinoyat qurollari, jinoyatga aloqador buyumlar va shu kabi boshqa dalillarni tergov davomida ko'zdan kechirish harakatlarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tergov harakatlarida xolislarning o'rnini fotofiksatsiya qilishga almashtirish ko'p vaqt ni tejashta yordam beradi" [10].

Fikrimizga ko'ra, Jinoyat protsessida xolis institutini takomillashtirish, ushbu sohadagi milliy qonunchiligmizni zamon bilan hamnafas qilib moslashtirishda bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Taklif etilishi mumkin bo'lgan yangi qonun loyihalari xolislar ishtirokini bekor qilishga urg'u bermasdan, balki ular istisno etilgan taqdirda videotasvirga olinishi shartligi ko'rsatiladi.

Shuningdek, xolislar ishtiroki shart bo'lgan har bir tergov va protsessual harakatlarga individual yondashish talab etiladi. Ayrim tergov harakatlarida ish holatidan kelib chiqib, video

tasvirga olinishi shart bo'lgan holatlarda xolislarni ishtirok etilishi ixtiyoriyligi tergov harakatiga mas'ul bo'lgan mansabdor shaxs tanloviga havola etish lozim bo'ladi. Shuni ta'kidlash joizki, taklif qilinayotgan qonun loyihasi protsessual harakatlarni ham xolislar bilan, ham videotasvir yordamida rasmiylashtirishni taqiqlamaydi.

Tergov va protsessual harakatlarini amalga oshirishda xolislarni ishtirok etish tartibiga ko'ra ikki guruhga tasniflash mumkin:

1) xolislarning ishtiroki shart bo'lgan holatlar;

2) xolislar ishtiroki shart bo'limgan – ularni ishtiroki inkor etilgan taqdirda videotasvirga olinishi zarur bo'lgan holatlar;

Birinchi guruhga, tanib olish uchun ko'rsatish, tintuv va shaxsiy tintuv hamda olib qo'yish tergov harakatlarini taklif sifatida kiritib, bunda xolislarning ishtiroki majburiy etib belgilash mumkin.

Ikkinci guruhga, ko'zdan kechirish, guvohlantirish, ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish, murdani eksperiment, eksperiment tadqiqoti uchun namuna olish, pochta-telegraf jo'natmalarini ko'zdan kechirish va olib qo'yish, mol-mulkni xatlash, tergovchiga nisbatan huquqqa zid xatti-harakatlarni tasdiqlash protsessual harakatlarida xolislar ishtirokining ixtiyoriyligini belgilash orqali, ushbu harakatlarda videotasvirga olinishi shartligi ko'rsatilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qayd etish kerakki, ushbu guruhga mansub tergov harakatlari agarda guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchilarining ishtirokida o'tkazilayotgan bo'lsa, guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchilar yoki ularning vakillari yoxud himoyachilarining iltimosiga ko'ra yoki videotasvirga olinishiga roziligi asosidagina yo'l qo'yiladi. Ularning iltimoslari tergov harakati boshlanishidan avval bayonnomada qayd etiladi.

Ikkinci guruhga mansub, ya'ni xolislar ishtirok etmaydigan tergov harakatlari jarayonini videoyozuv orqali uzlusiz qayd etilishini nazarda tutuvchi normalarni qonunchilikka kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tergov harakatining uzlusizligini ta'minlash, eng avvalo, tasvirning ishonchligini oshirishga xizmat qiladi, shu bilan birga, protsessual harakatlar davomida shaxsning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarining cheklanishining oldini olishga yordam beradi. Bu jarayonda "uzlusiz qayd etish" tushunchasi, tergov harakati davomida videoyozuv jarayonining tanaffussiz, o'chirilmasdan va tasvirga olinmay qolish holatlarisiz amalga oshirilishini anglatadi.

Agar tergov harakati texnik sabablarga ko'ra, masalan, quvvat manbaining tugab qolishi, oldindan oldini olish imkonini bo'limgan favqulodda vaziyatlar yoki yengib bo'lmas kuch ta'siri sababli vaqtincha to'xtatilsa, bu holat bayonnomada qayd etilishi lozim. Tergov jarayonini davom ettirishga to'sqinlik qilgan omillar bartaraf etilgandan so'ng, tergov harakati yana tiklanadi. Shu bilan birga, videoyozuvni qayta boshlashdan avval tanaffusning sabablari aniq bayon qilinadi. Tergov harakati davom ettirilgandan keyin esa bu holat protsessning boshqa ishtirokchilari tomonidan bayonnomada tasdiqlanishi shart. Bu yondashuv tergov jarayonining shaffofligini ta'minlash va protsessual talablarga rioya qilinishini kafolatlashga xizmat qiladi.

Taklif etilayotgan qonun loyihasida, protsessual harakatlarni amalga oshirish vaqtida videotasvirga qo'yiladigan talab, tasvir va ovoz sifatining ta'minlangan bo'lishi zarur. Shuningdek, videotasvir va ovoz tiniq, uzilishlarsiz, nutq (muloqot) tushunarli bo'lishi lozim. Shunga alohida e'tibor berilishi lozimki, agar tergov harakati shaxsni yechintirish bilan bog'liq

holda amalga oshirilsa, protsessual harakatni videotasvirga olish to'xtatilishi lozim. Bizning fikrimizcha, bunday vaqtda, jarayonni videotasvirga olmay, uni audioyozuvgaga yozib olishni qonunchilik istisno etmaganligi sababli, uni audioyozuvgaga olish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari himoya qilinishini ta'minlash bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi Qonun. 24.05.2019-yil // lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-yanvardagi O'RQ-476-sonli Qonuni tahririda – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.01.2021 y., 03/21/664/0014-son // www.lex.uz
3. "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga jinoyat protsessida ishtirok etuvchi fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishni kuchaytirishga qaratilgan o'zgartishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi Qonun. 15.05.2020 yil // www.lex.uz
4. Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ishni sudga qadar yuritishda yagona idoralararo elektron hamkorlik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 28.01.2022-yilidagi PQ-105-son Qarori // www.old.lex.uz.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida" 2018-yil 24-avgust kunidagi 24-son qarori // old.lex.uz.
6. Qarang: O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. 1994-yil 22-sentyabr. (91-modda) // www.lex.uz
7. Leonov A.I. "K voprosu ob uchastii ponyatykh v sledstvennykh deystviyakh, ogranicivayushchikh konstitutsionnye prava grazhdan". "Sotsial'no-ekonomicheskie yavleniya i protsessy", Moskva, 2020.
8. Qarang: "In Science/ Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and Innovations" Special Issue – 01(2022) / ISSN 2181-1415.
9. Dzhakoniya V.E. "Televidenie".– M.: «Goryachaya liniya–Telekom», 2002.– S. 311–316.– 640 s.– ISBN 5-93517-070-1 // Wikipedia.
10. Kadirova M. X. "Proverka i otsenka kompyuternoy informatsii v kachestve dokazatel'stv". Monografia pokonferencyjna. Science, Research, Development #16 / International science-practical conference April 30, 2019, Barcelona, Spain. S. 118-122 // ResearchGate

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 4 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).